EGE UNIVERSITETI
VA
RESPUBLIKA SUD-TIBBIY EKSPERTIZA ILMIY-AMALIY MARKAZİ
O‘RTASIDA
O‘ZARO KELISHUV MEMORANDUMI

O‘zaro hamkorlikni mustahkamlash hamda o‘zaro almashinuvni rivojlantirish maqsadida, **EGE UNIVERSITETI,** Gençlik ko‘chasi No:12, Bornova, İzmir, Türkiye va **RESPUBLIKA SUD-TIBBIY EKSPERTIZA ILMIY-AMALIY MARKAZI**, Shifokorlar-2 ko‘chasi, 7M-uy, Toshkent, O‘zbekiston o‘rtalarida quyidagi shartnoma tuzildi:

1-modda: Hamkorlik sohalari

Ta’lim muassasasi va Markaz o‘rtasidagi hamkorlik akademik, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlik ikki muassasada taklif qilinadigan barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim va tadqiqot faoliyatini o‘z ichiga oladi.

2-modda: Hamkorlik shakllari

1. Ta’lim muassasasi va Markazning o‘zaro hamkorligi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

   (i) Ta'lim muassasi va Markazning professori, ekspert va/yoki tadqiqotchi almashinuvi qo'llab-quvvatlash,

   (ii) Ikki talim va bilimsel-pratik kurumun profesörleri va tadqiqotchilar tomonidan ish birligine dayalı tadqiqoti va tadqiqot natijalarining umumiy nashr etilishini rag'batlantirish,

   (iii) Talabalar institutlari, tadqiqotchi va shaxsiy rivojlanishini har ikkala tarbiyalash,

   (iv) Referanslarning, nashrlarning, akademik ma'lumotlarning, bilimsel-yöntemsel tavsiyalarning va literatürün ta'minotini rivojlantirish,

   (v) Ege Universiteti va Markazining ilmiy bo‘lim va fakultetlari, ilmiy laboratoriyalar va brendlar, kutubxonalar va turli ma’muriy vazifalar bog‘liq bo‘lgan tadqiqotchilar va ish hosil qilish ta’minlash,

2. Ushbu hujjatda aniq belgilangan holatlardan mustasno hollarda ushbu Memorandumda ko‘rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq har qanday shartlar ikkala muassasa va manfaatdor tomonlar bilan kelishib olinadi va faoliyat boshlanishidan oldin yozma hujjat bilan tasdiqlanadi.

3-modda: Fakultet professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlar almashinuvi

1. Ta'lim muassasasi va Markaz ham bir-biridan tashrif buyuruvchi professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarga shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Tashrif buyurgan professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar qabul qiluvchi universitetning qoidalari va talab qiladigan ma'muriy tartib-qoidalarga rioya qiladilar.

2. Xar ikki muassasa ham boshqa institutning professor-o'qituvchilari yoki tadqiqotchilariga iqtisodiy yordam ko'rsatishi mumkin, ammo bu majburiy emas.

3. Ikkala muassasa ham boshqa universitetdan tashrif buyurgan professor-o'qituvchilari va tadqiqotchilariga turar joyni ta'minlashda yordam ko'rsatadi, ammo bunda turar joy bilan ta'minlash talab qilinmaydi.

4. Xar ikki muassasa ham boshqa muassasaning professor-o'qituvchilari va tadqiqotchilariga tashrif, tadqiqot maydoni, kutubxonalar va boshqa imkoniyatlardan foydalanish, ma'ruzalarni bepul tekshirish imkoniyatlari va tashrif buyurgan olimlarga beriladigan boshqa umumiy shart-sharoitlarni taqdim etadi.

4-modda: Kursantlar almashinuvi

1. Ikkala muassasa ham doktorantura va ordinator talabalari (kursantlar)ning o'zaro almashinuvini ta'minlaydi.

2. Har bir o'quv yurti qabul qiluvchi muassasa tomonidan yakuniy tasdiqlanishi sharti bilan almashinuvda ishtirok etuvchi talabalarni va xodimlarni tanlash uchun javobgardir.

3. Har bir muassasa tashrif buyuradigan tadqiqotchilar uchun mahalliy turar joyni tashkil etishga yordam beradi, biroq, ushbu mahalliy turar joyning narxi tashrif buyurgan tadqiqotchining zimmasiga yuklanadi va to'lanadi. Har bir ishtirokchi talaba, tadqiqotchi yoki uning muassasasi sayohatni tartibga solish va ularning xarajatlari uchun faqat o'zi javobgar bo'ladi. Pasport, vizalar, telefon xizmatlari, kitoblar va boshqa shaxsiy soliqlar kabi qo'shimcha to'lovlar ham tadqiqotchi, xodim tomonidan qoplanadi.

4. Har bir muassasa o'z tadqiqotchi, xodimlariga maxsus stipendiyalar taqdim etish orqali yordam berishi mumkin va har bir muassasa ishtirokchi tadqiqotchilardan o'zaro almashinuvida qatnashish paytida o'zlarining tibbiy/sog'liq sug'urtasini saqlab qolishlarini talab qiladi va barcha talabalar mezbon muassasaga bunday sug'urta guvohnomasini taqdim etishlari shart.

5-modda: Halqaro ilmiy-amaliy innovatsion loyixalarda (grant) ishtirok etish.

1. Her ikki tashkilot tomonidan tashkil etilgan seminarlar, konferanslar, mavzuli dumaloq masa yig'ilishlari, sempozyumlar, namoyishlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishlari va bunda ishtirok etish.

2. Temel faoliyatler doirasida yangilikchi projeler ve öncelikli alanlar sohasida hamkorlikning bajarilishi.

3. Ders kitoblari, bilimsel maqolalarning va monograflarning vb. umumiy ishlab chiqarish

6-modda: Memorandum boshqaruvchilari

Ushbu memorandum bo'yicha yakuniy javobgarlik har bir muassasa rektori/direktori zimmasiga tushadi, lekin uni boshqarish bo'yicha ma'muriy javobgarlik har bir muassasada quyidagi xodimlarga yuklanadi.

(i) Ege universiteti uchun: Xalqaro aloqalarni muvofiqlashtirish idorasi

(ii) Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy Markazi uchun: Xalqaro hamkorlik bo'limi

7-modda: Memorandumning amal qilish muddati

1. Ushbu Memorandum xar ikki muassasasining boshqaruv organlari tomonidan rasmiy roziligi asosida qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va 5 (besh) yil muddat davomida amal qiladi. Agar ushbu memorandumning amal qilish muddati tugashidan olti oy oldin tomonlardan hech biri uni bekor qilish yoki o'zgartirishni e'lon qilmasa, ushbu memorandum bir xil shartlar va talablar bilan uzaytiriladi.

2. Tomonlardan har biri 6 (olti) oy oldin boshqa Tomonni o'z istagi to'g'risida yozma ravishda ro'yxatdan o'tgan pochta orqali xabardor qilish orqali ushbu Memorandumni bekor qilishi mumkin.

3. Ushbu Memorandum qoidalariga istalgan vaqtda ikkala muassasaning yozma roziligi bilan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

27./7./2023

**EGE UNIVERSITETI,
MODDALARNI SUIISTE'MOL QILISH, ZAHARLANISH, KOLOGIYA VA FARMATSEVTIKA FANLARI INSTITUTI**

uchun va nomidan imzolangan

**Prof. Dr. Mehmet ERSAN
Rektor Yordamchisi**

EGE UNİVERSİTETİ

16./8./2023

RESPUBLIKA SUD-TIBBIY EKSPERTIZA ILMIY-AMALIY MARKAZI

uchun va nomidan imzolangan

**Prof.Dr. Iskandarov Alisher ISKANDAROVICH
Direktor**

RESPUBLIKA SUD-TIBBIY EKSPERTIZA ILMIY-AMALIY MARKAZI